

**Ta'limda til va kommunikatsiya madaniyati: ko'p tillilikda psixologik va pedagogik to'siqlarni texnologiyalar orqali bartaraf etish**

*Nizomov Feruz [beknzomov@gmail.com](mailto:beknzomov@gmail.com)*

*University of Business and Sciences o'qituvchisi*

*Qirg'izboyev Umidjon Akramjon o'g'li*

*O'zDJTU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta'limda til va kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishda ko'p tillilikning ahamiyati va bu jarayonda uchraydigan psixologik hamda pedagogik to'siqlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada o'quvchilarning yangi tilni o'rganishda duch keladigan motivatsiya yetishmasligi, qo'rquv va ishonchsizlik kabi psixologik muammolar hamda o'qituvchilar malakasi, moslashuvchan o'quv materiallarining cheklanganligi kabi bir qancha pedagogik muammolarni zamonaviy texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikatsiya, ko'p tilli muhit, pedagogik muammolar, psixologik to'siqlar, o'quv materiallari, zamonaviy texnologiyalar.

**Annotation:** This article is dedicated to analyzing the significance of multilingualism in shaping linguistic and communication culture in education, as well as the psychological and pedagogical barriers encountered in this process. The article examines psychological challenges such as lack of motivation, fear, and insecurity faced by students when learning a new language, as well as pedagogical issues like teachers' qualifications and the limited availability of adaptive teaching materials. It suggests ways to address these challenges through modern technologies.

**Keywords:** communication, multilingual environment, pedagogical issues, psychological barriers, teaching materials, modern technologies.

Bugungi globallashuv davrida ko'p tillilik nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ko'p tillilikni rivojlantirish o'quvchilarda kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayonda ko'plab psixologik va pedagogik to'siqlar yuzaga keladi. Yangi tilni o'rganish jarayonida esa o'quvchilar ko'pincha motivatsiya yetishmasligi, qo'rquv va ishonchsizlik kabi psixologik muammolarga duch keladi. Bu kabi holatlar ularning tilni o'rganish uchun bo'lgan qiziqishini kamaytirishiga sabab bo'ladi va o'zlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Bu turdagi muammolarni hal qilishda Duolingo va Busuu kabi mobil ilovalar samarali bo'lishi mumkin. Masalan, Duolingo 2022-yilgi tadqiqotlarga ko'ra, muntazam foydalanilgan holda til o'rganuvchilarda motivatsiyani 30% ga oshirishga yordam bergan. Bunday ilovalarning o'yin elementlari (masalan, ball to'plash yoki darajalarni oshirish) o'quvchilarni qiziqtiradi, qo'rquvni kamaytiradi va faol ishtirokni rag'batlantiradi. Shuningdek, Busuu platformasi foydalanuvchilarga dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan insonlar bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu esa o'quvchilarni o'z qobiliyatlariga nisbatan ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Shu orqali o'quvchilar qo'rquv va xatolardan uyalish hissidan yengil chiqib, tilni o'rganishda faolroq bo'lishadi.

Til o'rganishda o'qituvchilarning malakasi va ularning foydalanayotgan o'quv materiallari ham katta ahamiyatga ega. Ammo aksariyat hollarda moslashuvchan va interaktiv dars materiallarining yetishmasligi, o'qituvchilarning yangi yondashuvlarni qo'llay olmasligi jarayonni sekinlashtiradi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarining eski shakllarga asoslanganligi ham talabalar ehtiyojlarini

qondirishda yetarli emas. Ushbu turdagi pedagogik muammolarni hal qilishda Google Classroom va Edmodo kabi platformalar samarali yechim bo'lishi mumkin. Masalan, Google Classroom o'qituvchilarga o'quv materiallarini yaratish, ularni talabalarga onlayn tarzda taqdim etish va jarayonni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu platformadan foydalanish o'quvchilarning materiallarni o'zlashtirish samaradorligini 25% ga oshirgan. Edmodo esa o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida doimiy muloqotni ta'minlab, interaktiv mashqlar va testlarni boshqarish imkonini beradi. Bu platformalar o'quv jarayonini yanada qulay va moslashuvchan qilish bilan birga, o'qituvchilarga individual yondashuv asosida dars o'tish imkonini beradi. Ushbu holat bilan esa biz yuqoridagi kabi pedagogik muammolarni hal qilgan bo'lamiz. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish orqali ko'p tillilikda yuzaga keladigan psixologik va pedagogik muammolarni bartaraf etish nafaqat o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yengillashtiradi, balki ularni globallashtirish sharoitiga tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alabau, A., Bonafini, F., & Munday, P. (2022). The impact of gamification on language learning motivation: A case study of Duolingo. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 9(1), 25–38.
2. Nizomov F., Tuychibayeva Sh. European science international conference: Analysis of modern science and innovation 352-354 <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/856/794>
3. Busuu Insights Team (2020). How global interaction enhances language confidence. Busuu Annual Report.
4. Nizomov F., Qirg'izboyev U. European science international conference: *Analysis of modern science and innovation: ingliz tilida insho yozish bilim va ko'nikmalarini pedagogik innovatsiyalar orqali oshirish* <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/834/774>
5. Edmodo Research Team (2021). Edmodo's role in enhancing teacher-student communication and interactive learning. Edmodo White Paper Series.
6. Google Education Research (2021). Impact of Google Classroom on adaptive learning environments. *Google Education Studies*.
7. Klimova, B. F. (2020). ICT as a tool for overcoming psychological and pedagogical barriers in education. *Procedia Computer Science*, 176, 124–129.